

Vafo va omonat



14:00 / 13.04.2019 4709

8

Hokimning xotini Yusufni xiyonatga chorladi. Lekin Yusuf bosh tortdi va: “Yo‘q! Men xo‘jayinimga xiyonat qilmayman. Albatta u men uchun yaxshilik qildi va meni hurmatladi. Albatta men Allohdan qo‘rqaman”, dedi. Hokimning xotini bundan g‘azablanib, eriga shikoyat qildi. Hokim ayolining yolg‘onchi, Yusufning rostgo‘y ekanini bilardi. U xotiniga: “Albatta sen adashguvchilardan bo‘lding”, dedi.

Yusuf Misrda husni bilan tanildi. Uni biror kishi ko‘rsa, shunday derdi: “Yo Parvardigor! Bu bashar emas! Bu karamli farishtaning o‘zi-ku”.

Ayolning g‘azabi yanada kuchayib, Yusufga: “Unday bo‘lsa sen qamoqqa borishing kerak!” dedi. Yusuf: “Men uchun qamoq yaxshiroqdir”, dedi.

Bir necha kundan so‘ng hokim Yusufni qamoqqa yuborishga qaror qildi. U Yusufning aybsiz ekanini bilardi. Yusuf qamoqqa kirdi.